

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA NOAN'ANAVIY METODLARNING SAMARADORLIGI

*Kushshayeva Dilfuza Sherjon qizi*

*Navoiy viloyati Zarafshon shaxar 10-DMTT tarbiyachisi*

**Annotation:** *this article describes the views on the effectiveness of unconventional methods in elementary school classes.*

**Keywords:** *creative thinking, unconventional method technology, educational work, mentor, independent thinking process, modern didactic tools.*

**Аннотация:** *В этой статье изложены взгляды на эффективность нетрадиционных методов на уроках начальной школы.*

**Ключевые слова:** *творческое мышление, технология нетрадиционного метода, учебно-воспитательная работа, наставник, процесс самостоятельного мышления, современные дидактические средства.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarda noan'anaviy metodlarning samaradorligi borasida qarashlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijodiy fikrlash, noan'anaviy metod texnologiyasi, o'quv-tarbiya ishlar, ustoz, mustaqil fikrlash jarayoni, zamonaviy didaktik vositalar.*

### **KIRISH (Introduction)**

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 29-apreldagi farmoni bilan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni joriy yilda amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Yo'l xaritalari har yil uchun alohida qabul qilinadi. O'zbekistonning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan. Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli Tarbiyachi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'quv-tarbiya ishlari jarayonidabolalarni ijodiy

fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy dars samarali bo'lishi kerak unda: Tarbiyachi bugun o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshira oladigan halollik va fidoiylilik fazilatlarini o'zida mujassam etishi Tarbiyachi bolalar ko'z o'ngida chinakam sobiq hayot ta'limini beruvchi ustoz sifatida namoyon bo'lishi zarur. Ta'limda bolalar shaxsini fikrlashga, o'zgarar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Maktabgacha ta'limda ayniqsa, Tayyorlov guruhida tarbiyalanuvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish

mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsiptiga e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Hozirgi davr darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda o'qituvchilar Xorij pedagoglari tajribasini o'rganib, innovatsion metodlardan, va yangi pedagogik texnikalardan foydalanishlari lozim. Boshlang'ich sinf ta'lim usullari odatdagi ta'lim usullaridan biroz farq qiladi, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari juda yosh. Ta'lim maydoni turli xil qobiliyatlar va shaxslar bilan birgalikda ishlaydigan o'quvchilar bir joyga to'planadigan juda dinamik muhit sifatida ajralib turadi va o'qituvchilarning vazifasi har biri uchun o'zlarini ya'ni o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy va innovatsion ta'lim strategiyalarini amalga oshirishga qodir samarali o'qituvchilar bo'lishi muhimdir. Noan'anaviy ta'lim metodlari dars jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bunday metodlarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Noan'anaviy metodlardan foydalanishni ta'lim jarayonida tadbiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi. Noan'anaviy metod texnologiyasi-muayyan muddatga mo'ljallangan ta'lim jarayon markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir. Noan'anaviy

metodlardan “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Davra suhbat”, “Rolli o’yinlar”, “Zig-zag”, “Charxpalak”, “Muammoli vaziyat”, “Bahsmunozara”, “Pinbord”, “3x4”, “Konvert”, “FSMU”, “Assesment”, “Sinkveyn”, “Diqqat”, “Venn diagrammasi”, “Baliq ovi”, “Raketa”, “To’g’ri-noto’g’ri”, “Mo’jizalar maydoni”, “So’zdan so’z yasash”, “Ustunchalar”, “Kim g’olib”, “Muhokama”, “Suhbat”, “Amaliy mashg’ulot”, “T-chizmasi” “BBS”, “Rasmi damino”, “Nima o’zgardi”. “Aksincha” va hokazo.

Keling noan’anaviy metodlarning samaradorligini ko’rib chiqaylik:

1. Tarbiyalanuvchilarning mashg’ulotlardagi faollashuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi;

2. Tarbiyalanuvchilar o’qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishi, hamkorlik yuzaga kelishi;

3. Tarbiyalanuvchining nazorati barcha o’quvchilar uchun motivatsiya-ishtiyoqni vujudga keltiradi.

4. Tarbiyalanuvchi va o’quvchi vaqtdan to’g’ri va unumli foydalanishi;

5. Yangi mavuzning keng hajmda o’rganilishi va o’zlashtirilish samaradorligi oshishi;

6. Tarbiyalanuvchilarning bilim darajalarini har tomonlama va majmualik tekshirib ko’rish imkon mavjudligi;

7. Tarbiyalanuvchilarning faolligi oshib, ilmga bo’lgan e’tibori va qiziqishi kuchayadi.

8. Topshiriqlarni amaliy tekshirib ko’rish va vazifani bajarishga ijodiy yondashishi;

9. Tarbiyalanuvchining o’zini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qilishi va ijodiy izlanishi;

10. Guruhlarda jamoa bo’lib ishlash ko’nikmasini shakllanishi;

11. Bilimi past o’quvchilarning bilimdan o’quvchilarga ergashib, aralashib ketishi;

12. Tarbiyalanuvchilar vaziyatni tezda baholay olish va hozirjavob bo’lish ko’nikmalariga ega bo’lib borishi;

13. Mustaqil fikrlay oladigan o’quvchilarning ko’payib bopirishi;

14. Tarbiyalanuvchida o'z g'alar fikrini tinglay olish ko'nikmasini hosil bo'lishi;

15. Tarbiyalanuvchi o'z fikrini himoya qilishi;

16. Bildirilgan fikrlarni umumlashtirish ko'nikmasi paydao bo'lishi;

Bundan tashqari quyida bir nechta harakatli mashqlarni misol qilib keltirishimiz mumkinki, natijada darslar ancha qiziqarli va noan'anaviy bo'ladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-2018.

2. M.Э.Жумаев, М.Ю.Юлдашева, Б.У.Мингбаева, Г.А.Маматова “Бошланғич таълимни ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар” методик услубий қўлланма – Т.: 2017 й.

3. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari Бекмуродова, Ж. А. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari / Ж. А. Бекмуродова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 2 (292). — С. 445-447. — URL: <https://moluch.ru/archive/292/65552/> (дата обращения: 12.01.2021).